e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/kfsv6w41

INGLIZ VA O‘ZBEK BADIIY MATNLARIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYANING LINGVOKULTUROLOGIK IFODALANISHI

Azimova Zilola Ismoil qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, o‘qituvchi.
e-mail: azimovazilola@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0009-0008-2937-5179

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida simmetriya va asimmetriyaning lingvokulturologik ifodalanish xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda simmetriya va asimmetriya faqat strukturaviy hodisa sifatida emas, balki badiiy matnda milliy-madaniy mazmun, aksiologik qarashlar va muallifning konseptual pozitsiyasini shakllantiruvchi vosita sifatida o‘rganiladi. Asosiy metod sifatida qiyosiy-lingvokulturologik tahlildan foydalanildi. Charles Dickensning *A Tale of Two Cities*, William Shakespearening *Macbeth* hamda Cho‘lponning *Kecha va kunduz* asarlaridan olingan misollar asosida sintaktik parallelizm, antonimik juftliklar, semantik oppozitsiyalar va obrazlararo nomutanosiblik tahlil qilindi. Natijalar strukturaviy simmetriya ko‘pincha semantik yoki aksiologik asimmetriya bilan birgalikda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Ingliz badiiy matnlarida ushbu hodisalar individual tanlov, axloqiy ziddiyat va ijtimoiy beqarorlikni ifodalashga xizmat qilsa, o‘zbek badiiy matnlarida milliy uyg‘onish, an’ana, ma’rifat, ijtimoiy me’yor va shaxs erkinligi bilan bog‘liq mazmunlarni ifodalashda faol ishtirok etadi. Tadqiqot natijalari simmetriya va asimmetriyani badiiy matnning milliy-madaniy semantikasini shakllantiruvchi o‘zaro bog‘liq lingvopoetik hodisalar sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: simmetriya, asimmetriya, lingvokulturologiya, badiiy matn, parallelizm, antonimik oppozitsiya, milliy-madaniy mazmun, qiyosiy tahlil, ingliz adabiyoti, o‘zbek adabiyoti.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ СИММЕТРИИ И АСИММЕТРИИ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

Азимова Зилола Исмоил кизи

Jizzax davlat pedagogika universiteti, o‘qituvchi.

Аннотация.

В статье проводится сравнительный анализ лингвокультурологических особенностей выражения симметрии и асимметрии в английских и узбекских художественных текстах. Симметрия и асимметрия рассматриваются не только как структурные явления, но и как средства формирования национально-культурного содержания, аксиологических представлений и концептуальной позиции автора в художественном тексте. В качестве основного метода использован сравнительно-лингвокультурологический анализ. На материале произведений Чарльза Диккенса *A Tale of Two Cities*, Уильяма Шекспира *Macbeth* и Чулпана *Kecha va kunduz* анализируются синтаксический параллелизм, антонимические пары, семантические оппозиции и диспропорции между образами. Результаты показывают, что структурная симметрия зачастую проявляется в сочетании с семантической или аксиологической асимметрией. В английских художественных текстах данные явления служат выражению индивидуального выбора, нравственных противоречий и социальной нестабильности, тогда как в узбекских художественных текстах они активно участвуют в выражении смыслов, связанных с национальным пробуждением, традицией, просвещением, социальными нормами и свободой личности. Результаты исследования позволяют интерпретировать симметрию и асимметрию как взаимосвязанные лингвопоэтические явления, формирующие национально-культурную семантику художественного текста.

Ключевые слова: симметрия, асимметрия, лингвокультурология, художественный текст, параллелизм, антонимическая оппозиция, национально-культурное содержание, сравнительный анализ, английская литература, узбекская литература.

LINGUOCULTURAL EXPRESSION OF SYMMETRY AND ASYMMETRY IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY TEXTS

Azimova Zilola Ismoil qizi

Jizzakh State Pedagogical University, Lecturer.

Abstract.

This article provides a comparative analysis of the linguocultural features of symmetry and asymmetry in English and Uzbek literary texts. Symmetry and asymmetry are examined not merely as structural phenomena but also as means of shaping national and cultural meanings, axiological perspectives, and the author's conceptual position in a literary text. Comparative linguocultural analysis is employed as the primary research method. Drawing on examples from Charles Dickens's *A Tale of Two Cities*, William Shakespeare's *Macbeth*, and Choʻlpon's *Kecha va kunduz*, the study analyzes syntactic parallelism, antonymic pairs, semantic oppositions, and asymmetries between literary images. The findings demonstrate that structural symmetry often occurs in combination with semantic or axiological asymmetry. In English literary texts, these phenomena contribute to the representation of individual choice, moral conflict, and social instability, whereas in Uzbek literary texts, they play an active role in expressing meanings associated with national awakening, tradition, enlightenment, social norms, and individual freedom. The findings make it possible to interpret symmetry and asymmetry as interrelated linguopoetic phenomena that shape the national and cultural semantics of literary texts.

Keywords: symmetry, asymmetry, linguoculturology, literary text, parallelism, antonymic opposition, national and cultural meaning, comparative analysis, English literature, Uzbek literature.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnni faqat til birliklarining yigʻindisi sifatida emas, balki muayyan xalqning dunyoqarashi, tarixiy tajribasi, qadriyatlari va milliy tafakkurini aks ettiruvchi murakkab lingvomadaniy hodisa sifatida oʻrganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, badiiy matnda uchraydigan simmetriya va asimmetriya hodisalari ham shakliy tuzilish bilan cheklanmay, muallifning estetik niyati, konseptual qarashlari hamda milliy-madaniy tafakkur xususiyatlarini namoyon qiluvchi vosita sifatida namoyon boʻladi.

Simmetriya umumiy ma'noda mutanosiblik, muvozanat, parallel qurilish va takroriylikka asoslangan tartibni ifodalasa, asimmetriya ushbu muvozanatning buzilishi, strukturaviy yoki semantik nomutanosiblik hamda kutilmagan qarama-qarshilik orqali badiiy ta'sirchanlikni yuzaga chiqaradi. Badiiy matnda mazkur ikki hodisa koʻpincha oʻzaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini toʻldiruvchi poetik tamoyillar sifatida amal qiladi. Parallel sintaktik konstruksiyalar, antiteza, leksik takror, obrazlarning qarama-qarshi qoʻyilishi, kompozitsion muvozanat yoki uning ataylab buzilishi matnning semantik va pragmatik yaxlitligini shakllantiradi.

Ingliz va oʻzbek badiiy tafakkuri turli tarixiy, madaniy va ijtimoiy muhitda shakllangan boʻlsa-da, har ikki adabiy an'anada simmetrik va asimmetrik modellar orqali inson, jamiyat, tabiat, axloq, muhabbat, hayot va oʻlim kabi universal tushunchalar badiiy talqin qilinadi. Shu bilan birga, ushbu universal hodisalarning til vositalarida ifodalanishi milliy-madaniy xususiyatlarga ega. Ingliz adabiy matnlarida individualistik dunyoqarash, shaxsiy tanlov, ichki ziddiyat va psixologik qarama-qarshiliklar koʻproq sintaktik va semantik asimmetriya orqali ochilishi mumkin boʻlsa, oʻzbek badiiy matnlarida jamoaviylik, an'ana, oilaviy qadriyat, hurmat, axloqiy me'yor va ijtimoiy muvozanat tushunchalari parallelizm hamda takroriy strukturalar bilan chambarchas bogʻliq holda namoyon boʻladi. Biroq bunday farqlar mutlaq emas, balki konkret matn va muallif uslubiga bogʻliq ravishda turlicha koʻrinish oladi.

Simmetriya va asimmetriyani lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish badiiy matnda shakl va mazmun, til va madaniyat, muallif tafakkuri va milliy dunyoqarash oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, ikki til materialini qiyosiy oʻrganish natijasida badiiy obraz yaratishda qoʻllanadigan universal va milliy xususiyatlarni aniqlash, ularning semantik hamda pragmatik vazifalarini belgilash mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va oʻzbek badiiy matnlarida simmetriya va asimmetriyaning lingvokulturologik ifodalanish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun badiiy matnda simmetrik va asimmetrik strukturalarning asosiy koʻrinishlarini aniqlash, ularning leksik, sintaktik va semantik xususiyatlarini tavsiflash, shuningdek, ingliz va oʻzbek adabiy matnlarida ushbu hodisalarning milliy-madaniy mazmunini ochib berish vazifalari belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy matnda simmetriya va asimmetriya hodisalarini oʻrganish stilistika, matn lingvistikasi, kognitiv poetika hamda lingvokulturologiya kabi bir necha ilmiy yoʻnalishlarning tutash nuqtasida amalga oshiriladi. Mazkur tushunchalar dastlab matnning shakliy va kompozitsion xususiyatlari bilan bogʻliq holda talqin qilingan boʻlsa, zamonaviy tadqiqotlarda ularning madaniy konseptualizatsiya, estetik idrok va milliy dunyoqarashni ifodalashdagi roli ham alohida e'tibor markaziga chiqmoqda.

Farzad Sharifian Cultural Linguistics doirasida til birliklarini muayyan jamoaga xos boʻlgan madaniy konseptualizatsiyalarning ifodasi sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, til tarkibidagi metaforalar, kategoriyalar, sxemalar va boshqa konseptual tuzilmalar jamiyatning tarixiy va madaniy tajribasi bilan bevosita bogʻliq. Shuning uchun bir xil yoki oʻxshash strukturaviy shakllarning turli tillarda turlicha semantik va madaniy yuk olishi tabiiy hisoblanadi [1].

Anna Wierzbicka til va madaniyat oʻrtasidagi bogʻliqlikni "madaniy kalit soʻzlar" va "cultural scripts" nazariyasi orqali izohlaydi. Uning tadqiqotlariga koʻra, muayyan jamiyatda muntazam qoʻllanadigan til birliklari shu jamiyatga xos qadriyatlar, muloqot me'yorlari va dunyoni idrok etish usullarini aks ettiradi [2]. Bu qarash badiiy matndagi qarama-

ISSN 3060-5059 (Online)

qarshi tushunchalar, parallel obrazlar yoki muvozanatli va nomuvozanatli konstruksiyalarni milliy madaniyat bilan bog'liq holda sharhlash imkonini beradi.

Badiiy nutqda simmetriyaning muhim ko'rinishlaridan biri parallelizmdir. Peter Verdonk poetik matndagi parallel tuzilmalarni stilistik foregrounding, ya'ni muayyan badiiy unsur yoki ma'noni oldingi planga chiqarish mexanizmi sifatida baholaydi [3]. Parallelizm takroriy sintaktik konstruksiyagina emas, balki matn ritmi, semantik uyg'unligi hamda obrazlar o'rtasidagi munosabatni tashkil etuvchi vosita sifatida qaraladi.

Winfried Menninghaus va hammualliflar poetik nutqda parallelizm va me'yordan chekinishni ikki o'zaro bog'liq estetik tamoyil sifatida tadqiq qilgan. Ularning tajribaviy natijalarida qofiya, metr, alliteratsiya va boshqa takroriy shakllar matnni idrok etishni yengillashtirishi, kutilmagan strukturaviy og'ishlar esa o'quvchining mavjud prognozini buzishi ko'rsatilgan [4].

O'zbek tilshunosligida til va madaniyat munosabatlarini kompleks tahlil qilishda D. U. Ashurova va M. R. Galiyevaning tadqiqotlari muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Olimlar lingvokulturologiyani til birliklarida universal hamda milliy-madaniy mazmunning namoyon bo'lishini o'rganuvchi antropotsentrik yo'nalish sifatida belgilaydi [5].

O'zbek tilshunosligida badiiy matndagi parallelizm muammosi ham alohida tadqiq qilingan. N. O'ralova sintaktik parallelizmning o'zbek va xorijiy tilshunoslikdagi nazariy talqinlarini qiyoslab, uning matndagi strukturaviy-semantik hamda lingvopoetik imkoniyatlarini ko'rsatadi [6].

Ingliz tilidagi poetik matnlarda lingvistik parallelizmning kognitiv-stilistik imkoniyatlari ham o'zbek tadqiqotchilari tomonidan o'rganilgan. Ushbu yondashuvda parallelizm fonologik, morfologik, grammatik, leksik va sintaktik sathlarda yuzaga kelishi, ularning birgalikdagi faoliyati esa badiiy matnning foregrounding xususiyatini kuchaytirishi ta'kidlanadi [7].

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida bevosita ingliz va o'zbek badiiy matnlaridagi simmetriya va asimmetriyaning lingvokulturologik xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar ham paydo bo'lmoqda. Jumladan, Z. Azimova ingliz va o'zbek badiiy matnlarida sintaktik parallelizm, takror, inversiya, semantik qarama-qarshilik va strukturaviy nomutanosiblikni qiyosiy jihatdan tahlil qilib, ushbu vositalarning milliy dunyoqarash bilan bog'liqligiga e'tibor qaratadi [8].

Shunday qilib, mavjud tadqiqotlarni uch asosiy yo'nalishga ajratish mumkin: birinchisi, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni madaniy konseptualizatsiyalar orqali izohlovchi lingvokulturologik yondashuvlar; ikkinchisi, parallelizm va me'yordan chekinishni badiiy matnning stilistik hamda kognitiv tashkil topishi bilan bog'lovchi tadqiqotlar; uchinchisi esa ingliz va o'zbek matnlarida milliy-madaniy xususiyatlarni qiyosiy o'rganishga qaratilgan izlanishlardir. Biroq simmetriya va asimmetriyaning leksik, sintaktik, semantik va lingvokulturologik ko'rsatkichlarini yagona tahlil modeli asosida qiyoslash masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda asosiy metod sifatida qiyosiy-lingvokulturologik tahlil metodi qo'llanildi. Ushbu metod ingliz va o'zbek badiiy matnlarida uchraydigan simmetrik hamda asimmetrik konstruksiyalarni nafaqat shakliy va semantik jihatdan, balki ularning milliy-madaniy mazmuni nuqtayi nazaridan ham o'zaro qiyoslash imkonini beradi.

Tahlil jarayonida ingliz va o'zbek badiiy asarlaridan simmetriya va asimmetriyani ifodalovchi til birliklari tanlab olindi. Tadqiqot materiali sifatida parallel sintaktik konstruksiyalar, leksik takrorlar, antitezalar, qarama-qarshi obrazlar, semantik oppozitsiyalar hamda kompozitsion muvozanat yoki nomuvozanatni yuzaga keltiruvchi birliklarga e'tibor qaratildi. Har bir misol dastlab uning strukturaviy xususiyati asosida aniqlanib, keyingi bosqichda mazkur birlikning matndagi semantik va pragmatik vazifasi tahlil qilindi.

Qiyosiy-lingvokulturologik tahlil uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda ingliz va o'zbek badiiy matnlaridagi simmetrik hamda asimmetrik birliklar ajratib olindi va ularning lingvistik shakli belgilandi. Ikkinchi bosqichda mazkur birliklarning kontekstual ma'nosi, muallifning badiiy maqsadi va obraz yaratishdagi vazifasi aniqlashtirildi. Uchinchi bosqichda esa ingliz va o'zbek matnlarida kuzatilgan birliklar o'zaro qiyoslanib, ulardagi umumiy va milliy-madaniy jihatdan farqlanuvchi xususiyatlar belgilandi.

Tahlilda, xususan, inson va jamiyat, o'z va begona, hayot va o'lim, ezgulik va yovuzlik, erkinlik va cheklanish kabi konseptual oppozitsiyalarning badiiy ifodalanishiga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur qarama-qarshiliklarning parallel yoki nomutanosib strukturalar orqali ifodalanishi ikki lingvomadaniyatdagi dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va estetik tafakkur xususiyatlarini aniqlash mezoni sifatida olindi.

Metodning qo'llanishi natijasida ingliz va o'zbek badiiy matnlaridagi simmetriya va asimmetriyaning faqat grammatik yoki kompozitsion hodisa emas, balki milliy-madaniy ma'no hosil qiluvchi lingvistik vosita ekanligini aniqlash imkoniyati yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ingliz va o'zbek badiiy matnlarida simmetriya hamda asimmetriyaning namoyon bo'lishi bir xil strukturaviy vositalarga tayansa-da, ularning lingvokulturologik mazmunida sezilarli farqlar kuzatiladi. Tahlil jarayonida parallel konstruksiyalar, antonimik juftliklar, semantik qarama-qarshilik, obrazlar oppozitsiyasi hamda strukturaviy muvozanatning buzilishi asosiy mezon sifatida olindi.

Ingliz badiiy matnida simmetriyaning yorqin namunalaridan biri Charles Dickensning *A Tale of Two Cities* romanining kirish qismida kuzatiladi. Muallif bir xil sintaktik model asosida qarama-qarshi tushunchalarni ketma-ket qo'llaydi: "It was the best of times, it was the worst of times", shuningdek, wisdom–foolishness, belief–incredulity, Light–Darkness, hope–despair kabi oppozitsiyalar ham shu modelni davom ettiradi.

ISSN 3060-5059 (Online)

Mazkur parcha grammatik jihatdan yuqori darajadagi simmetriyaga ega: har bir yangi konstruksiya "It was..." modeli asosida quriladi. Biroq semantik sathda qarama-qarshilik hukmron. Demak, bu yerda strukturaviy simmetriya va semantik asimmetriya bir vaqtning o'zida yuzaga keladi. Aynan shu ziddiyat Dickens tasvirlayotgan tarixiy davrning ikki tomonlama tabiatini ko'rsatadi.

Lingvokulturologik jihatdan ushbu qarama-qarshiliklar XVIII asr oxiridagi Yevropa jamiyatining tarixiy va ijtimoiy o'zgarishlar fonidagi murakkabligini anglatadi. Ayniqsa, "best/worst", "Light/Darkness", "hope/despair" oppozitsiyalari universallikka ega bo'lsa-da, Dickens ularni ijtimoiy tartib va inqilobiy o'zgarish kontekstida faollashtiradi.

Shunga yaqin, biroq boshqa semantik yo'nalishdagi hodisa William Shakespearening *Macbeth* tragediyasida uchraydi. Asarning boshidayoq jodugarlarning "Fair is foul, and foul is fair" jumlasi paydo bo'ladi. Ushbu konstruksiyada "fair" va "foul" birliklari o'zaro o'rin almashgan holda qat'iy sintaktik simmetriya hosil qiladi. Shu bilan birga, semantik jihatdan yaxshilik va yomonlik chegarasining buzilishi yuzaga keladi.

Bu misolda simmetriya grammatik strukturaning barqarorligini ta'minlasa, asimmetriya konseptual tizim darajasida namoyon bo'ladi. Odatda "fair" ijobiy, "foul" esa salbiy qiymatga ega. Shakespeare esa bu ikki qiymatni o'zaro almashtirish orqali axloqiy me'yorlarning beqarorlashganini ko'rsatadi.

Ingliz badiiy matnlaridagi ushbu misollarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, simmetrik struktura ko'pincha ichki ziddiyatni yanada keskinlashtirish vazifasini bajaradi. Shakldagi mutanosiblik mazmundagi qarama-qarshilikni yumshatmaydi, aksincha, uni o'quvchi uchun sezilarliroq qiladi.

O'zbek badiiy matnida esa simmetriya va asimmetriyaning lingvokulturologik xususiyati Cho'lponning *Kecha va kunduz* romanida ayniqsa yaqqol kuzatiladi. Asar nomining o'zi "kecha–kunduz" antonimik juftligiga asoslangan. Mazkur oppozitsiya zulmat–ma'rifat, qaramlik–erkinlik, ijtimoiy turg'unlik–uyg'onish kabi qarama-qarshiliklar bilan bog'lanadi.

Bu yerda "kecha" va "kunduz" shakliy jihatdan teng pozitsiyada turgan ikki vaqt tushunchasidir. Lekin ularning badiiy qiymati mutanosib emas. "Kecha" oddiy vaqt kategoriyasidan chiqib, jaholat, turg'unlik, ijtimoiy bosim va ma'naviy qorong'ilikni ifodalovchi ramziy birlikka aylanadi. "Kunduz" esa yorug'lik, uyg'onish, o'zlikni anglash va yangilanish imkoniyatini bildiradi. Shunday qilib, leksik simmetriya aksiologik asimmetriyaga aylanadi.

Cho'lpon romanining boshlanishida bahorning kelishi ham muhim semantik vazifa bajaradi: "Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi" tarzidagi tasvir tabiat uyg'onishini inson ruhiyati bilan parallel qo'yadi. Tabiatdagi yangilanish bilan jamiyatdagi turg'unlik o'rtasida esa yashirin asimmetriya yuzaga keladi.

Qiyosiy tahlilda ingliz va o'zbek matnlarida bir qator umumiy belgilar aniqlandi. Birinchidan, har ikki adabiy an'anada simmetriya ko'pincha antonimik juftliklar va parallel tuzilmalar orqali shakllanadi. Dickensda "best/worst", "Light/Darkness", "hope/despair", Shakespeareda "fair/foul", Cho'lponda esa "kecha/kunduz" ana shunday binar modelni hosil qiladi. Ikkinchidan, shakliy simmetriya aksariyat hollarda mazmuniy muvozanatni emas, aksincha, ziddiyatni kuchaytirishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, lingvokulturologik farqlar ham mavjud. Ingliz matnlarida tahlil qilingan misollarda oppozitsiyalar ko'proq shaxsning axloqiy tanlovi, ijtimoiy inqiroz va qarama-qarshi voqeliklarni anglash bilan bog'langan. O'zbek matnida esa simmetrik va asimmetrik munosabatlar individual kechinmalardan tashqari, milliy uyg'onish, an'ana, ijtimoiy me'yor va jamoaviy qadriyatlar bilan yaqin aloqada namoyon bo'ladi.

Asar	**Til vositasi**	**Simmetriya shakli**	**Asimmetriya shakli**	**Lingvokulturologik mazmun**
C. Dickens, A Tale of Two Cities	best/worst; Light/Darkness; hope/despair	Sintaktik parallelizm va antonimik juftlik	Ijobiy va salbiy qiymatlarning keskin qarama-qarshiligi	Tarixiy o'zgarish, jamiyatdagi ikkilanish va beqarorlik
W. Shakespeare, Macbeth	fair/foul	Leksik va sintaktik o'zaro almashuv	Yaxshilik va yomonlik chegarasining buzilishi	Tashqi ko'rinish va mohiyat ziddiyati, axloqiy beqarorlik
Cho'lpon, Kecha va kunduz	kecha/kunduz	Antonimik va konseptual parallelizm	Qiymat jihatdan teng bo'lmagan oppozitsiya	Jaholat–ma'rifat, qaramlik–uyg'onish, eski–yangi
Cho'lpon, Kecha va kunduz	Tabiat uyg'onishi / ijtimoiy turg'unlik	Obrazlararo parallel tasvir	Tashqi uyg'onish va ichki-ijtimoiy cheklanish o'rtasidagi nomutanosiblik	Shaxs erkinligi va ijtimoiy me'yorlar ziddiyati

O'tkazilgan qiyosiy-lingvokulturologik tahlil shuni ko'rsatadiki, simmetriya badiiy matnda faqat shakliy uyg'unlik vazifasini bajarmaydi. U asimmetriya bilan birgalikda badiiy ma'noning shakllanish mexanizmlaridan biriga aylanadi. Strukturaviy parallelizm o'quvchi e'tiborini muayyan oppozitsiyaga qaratadi, asimmetriya esa shu oppozitsiya tarkibidagi semantik, aksiologik yoki madaniy nomutanosiblikni faollashtiradi.

Demak, ingliz va o'zbek badiiy matnlarida simmetriya hamda asimmetriyaning universal tomoni ularning qarama-qarshi konseptlarni tashkil etish, badiiy ta'sirchanlikni oshirish va matnning semantik yaxlitligini ta'minlashida namoyon bo'ladi. Milliy-madaniy o'ziga xoslik esa aynan qaysi konseptlarning qarama-qarshi qo'yilishi, ularga qanday aksiologik qiymat yuklanishi va bu oppozitsiyalar orqali qanday ijtimoiy-madaniy mazmunning ifodalanishida ko'rinadi.

XULOSA

Ingliz va oʻzbek badiiy matnlarida simmetriya va asimmetriyaning lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy oʻrganish mazkur hodisalarning faqat strukturaviy yoki stilistik vosita emas, balki milliy-madaniy mazmunni yuzaga chiqaruvchi muhim badiiy mexanizm ekanini koʻrsatdi. Tahlil natijalariga koʻra, simmetriya koʻpincha sintaktik parallelizm, leksik takror, antonimik juftliklar va konseptual qarama-qarshiliklar orqali shakllansa, asimmetriya ushbu muvozanatning semantik, aksiologik yoki pragmatik darajada buzilishi orqali namoyon boʻladi.

Charles Dickensning *A Tale of Two Cities* romanida strukturaviy simmetriya qarama-qarshi tushunchalarning ketma-ket qoʻllanishi orqali tarixiy va ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirishga xizmat qiladi. William Shakespearening *Macbeth* tragediyasida esa shakliy mutanosiblik yaxshilik va yomonlik, tashqi koʻrinish va ichki mohiyat oʻrtasidagi chegaralarning buzilishini ifodalovchi semantik asimmetriya bilan uygʻunlashadi. Choʻlponning *Kecha va kunduz* romanida "kecha–kunduz" oppozitsiyasi orqali jaholat va ma'rifat, qaramlik va uygʻonish, eski va yangi dunyoqarash oʻrtasidagi qarama-qarshilik lingvokulturologik mazmun kasb etadi.

Qiyosiy tahlil ingliz va oʻzbek badiiy tafakkurida simmetriya va asimmetriyaning umumiy funksiyalari mavjudligini koʻrsatdi. Har ikki adabiy an'anada ular badiiy ziddiyatni shakllantirish, muallifning gʻoyaviy-estetik pozitsiyasini kuchaytirish hamda oʻquvchi e'tiborini asosiy konseptual qarama-qarshiliklarga yoʻnaltirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri shundaki, simmetriya va asimmetriyani bir-biriga mutlaq zid hodisalar sifatida talqin qilish yetarli emas. Badiiy matnda ular koʻpincha oʻzaro birikkan holda faoliyat koʻrsatadi: konstruksiya shaklan simmetrik boʻlishi mumkin, biroq uning semantik yoki aksiologik mazmunida asimmetriya yuzaga keladi. Aynan ushbu oʻzaro munosabat badiiy matnning ekspressivligi, koʻp ma'noliligi va madaniy mazmunini kuchaytiradi.

Shunday qilib, ingliz va oʻzbek badiiy matnlaridagi simmetriya va asimmetriyaning qiyosiy-lingvokulturologik tahlili universal badiiy mexanizmlar bilan milliy tafakkur xususiyatlari oʻrtasidagi munosabatni aniqlash imkonini beradi. Kelgusida mazkur masalani kengroq badiiy korpus, turli janrlar hamda koʻproq mualliflar ijodi asosida oʻrganish simmetriya va asimmetriyaning lingvistik, kognitiv va madaniy tabiatini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharifian F. Cultural Linguistics and Linguistic Relativity // *Language Sciences.* – 2017. – Vol. 59. – P. 83–92. – DOI: 10.1016/j.langsci.2016.06.002
2. Wierzbicka A. *Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese.* – New York: Oxford University Press, 1997. – DOI: 10.1093/oso/9780195088359.001.0001
3. Verdonk P. Painting, Poetry, Parallelism: Ekphrasis, Stylistics and Cognitive Poetics // *Language and Literature.* – 2005. – Vol. 14, No. 3. – P. 231–244. – DOI: 10.1177/0963947005054479
4. Menninghaus W., Wagner V., Schindler I., Knoop C. A., Blohm S., Frieler K., Scharinger M. Parallelisms and Deviations: Two Fundamentals of an Aesthetics of Poetic Diction // *Philosophical Transactions of the Royal Society B.* – 2024. – Vol. 379, No. 1895. – Article 20220424. – DOI: 10.1098/rstb.2022.0424
5. Ashurova D. U., Galieva M. R. Cultural Linguistics: Main Issues, Trends and Tasks // *Uzbekistan: Language and Culture.* – 2019. – No. 2. – DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.2019.2/UBBD9506
6. Oʻralova N. I. The Theoretical Foundations of Syntactic Parallelism in Uzbek and Foreign Linguistics // *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture.* – 2026. – Vol. 7, No. 3. – DOI: 10.51699/cajlpc.v7i3.1548
7. Linguistic Parallelism in the English-Language Poetic Text: Cognitive-Stylistic Potential and Interpretation // *Foreign Languages in Uzbekistan.* – 2021. – Source
8. Azimova Z. Linguoculturological Features of Symmetry and Asymmetry in Literary Texts in English and Uzbek // *Oriental Journal of Philology.* – 2025. – P. 414–421. – DOI: 10.37547/supsci-ojp-05-07-59
9. Dickens C. *A Tale of Two Cities.* – Project Gutenberg. – Source
10. Shakespeare W. *Macbeth.* – Folger Shakespeare Library. – Source
11. Choʻlpon A. *Kecha va kunduz.* – Ziyouz elektron kutubxonasi. – Manba